



O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi Qonunchilik palatasi



Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi




Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston milliy universiteti



Taraqqiyot strategiyasi
markazi

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



17-aprel kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “O‘zbekiston – 2030”
strategiyasiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan

**“O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHIYATINI
RO‘YOBGA CHIQRISH IMKONIYATLARI” mavzusida
RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA**



Toshkent – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHIYATINI
RO‘YOBGA CHIQRISH IMKONIYATLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliykonferensiya materiallari

TO‘PLAMI

17 Aprel 2024 yil

Toshkent – 2024

Taqrizchilar:

Shirinov Djaxongir Djabbarovich – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mita raisi

Jo‘raqulov Furqat Noryigitovich – DXX Akademiyasi professori, siyosiy fanlar doktori, DSc,

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami – T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024. – 778 b.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 18-yanvardagi 16-son "2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida"gi buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2024 yil 17 aprel kuni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Konferentsiya materiallari to‘plamiga Yangi O‘zbekistonni barpo etish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalarini yoritish, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish va ilmiy asoslashning dolzarb masalalari sohalariga oid ilmiy maqolalar kiritilgan.

Mas‘ul muharrir

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d., prof.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: s.f.d. DSc S.S.Otamuratov, t.f.d., prof. N.X.Oblomurov, s.f.d., DSc T.Norboyev, t.f.d., DSc, prof. O.R.Rashidov, f.f.n., dots.M.N.Primov, f.f.f.d. PhD T.R.Safarova, t.f.f.d. PhD I.B.Baxodirov, dots. A.Sultanova, dots.v.b.N.T.Parpiyeva, o‘q.T.T.Aliyev

Matnlarda foydalanilgan manbalar va malumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir.

TAMAKI MAHSULOTLARINING BIOLOGIK VA SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Shaxriyor Zafar o‘g‘li Abduraxmanov

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment: Sog‘liqni saqlash menejmenti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Saboxat Gazievna Alimova

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari
nomzodi

Barchamiz bilamizki tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish inson salomatligi uchun zarardir. Hozirgi kunga kelib, dunyo miqyosida chekuvchilar soni tobora ortib bormoqda. Yoshlar va xotin-qizlar orasida kashandalikning tarqalishi esa juda ayanchli holdir.

Hozirgi zamonaviy tibbiyot natijalariga suyangan holda shuni aniq aytishimiz mumkinki, tamaki tarkibida yigirmadan ortiq zaharli moddalar mavjud bo‘lib, ular ichida eng zaharlisi nikotindir. Inson sigareta chekkanda, nikotin tutun orqali o‘pkaga, keyin esa qonga so‘rilib, yurak-qon tomir sistemasiga salbiy ta‘sir etadi. Qon tomirlari torayib, bosim oshadi. Yurak urishi tezlashadi. Bu holat yurak muskullarini ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu hol tez-tez takrorlanavergach, borib-borib yurak infarkti, stenokardiya kabi kasalliklar boshlanishi mumkin. Ma‘lumotlarga qaraganda, chekuvchilarda chekmaydiganlarga nisbatan o‘n ikki marta ko‘proq yurak-qon tomir xastaliklari uchraydi. Tamaki bosh miya hujayralariga ham ta‘sir etmay qolmaydi. Chekuvchida uyqusizlik, bosh og‘rig‘i boshlanadi. Oqibatda esa markaziy nerv sistemasi faoliyati buziladi. Ko‘p chekadigan kishi tez-tez balg‘am tashlaydi. Tez yursa, jismoniy mehnat qilsa, hansiraydigan bo‘lib qoladi. Ayrim hollarda ko‘p tamaki iste‘mol qilish chekuvchini ruhiy xastaliklarga duchor qilishi mumkin.

Tamaki chekish nafas olish sistemasiga ham zararli ta‘sir qiladi. Tamaki tutuni tarkibidagi zaharli moddalar turli xil o‘pka xastaliklari – bronxit, sil, hattoki saraton (rak) kasalliklariga olib kelishi kuzatilgan. Tamaki ovqat-hazm organlariga ta‘sir qilishi natijasida kishida ishtaha yo‘qoladi, og‘izda bemaza ta‘m paydo bo‘ladi, so‘lak bezlari faoliyati buziladi. So‘lak bilan oshqozonga tushgan nikotin kislotasi uning devorlarini zararlaydi. Jig‘ildon qaynaydi. Me‘da keragidan ortiq shira ishlab

chiqaradi. Bu esa me‘da o‘n ikki barmoqli ichak yarasi kabi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Tibbiyotda kashanda otadan yoki onadan bo‘lgan bola tug‘ilmay nobud bo‘lishi, tug‘ilganda esa nimjon, kasalmand bo‘lib tug‘ilishi ma‘lum. Kashandalik tamaki chekishga mukkasidan ketishlik, hattoki insonni ko‘r bo‘lib qolishiga olib kelarkan. Tamaki chekuvchi tomonidan tashqariga chiqarilgan tutun tarkibida zaharli moddalar konsentratsiyasi ko‘p bo‘ladi. Bunday holatda chekmaydigan odamlar ham majburiy ravishda chekishga o‘rganib qolishlari mumkin. Ko‘pchilik tanishlarimiz, do‘stlarimiz bilan chekish to‘g‘risida bahslashganimizda, ular siqilganda chekishlarini aytib, o‘zlarini oqlashga urinishadi. Go‘yoki tamaki inson g‘amini aritadigandek. Axir bu holat “burgaga achchiq qilib ko‘rpa yoqish” kabi emasmikan. Bugunda sigaretning turlari ko‘paydi. Ularning xilma-xilligiga barchamiz guvohmiz. Tamaki chekishning zararli oqibatlarini haqida, deyarli, barcha ommaviy axborot vositalari yordamida yoritilib borilayotgan bir paytda, tamaki mahsulotlari reklama qilinib, reklama roliklariga chiqishi nihoyatda xunuk holdir. Rang-barang qutilar qanchalik jiloli bo‘lmasin, uning ichidagi og‘u ekanligini unutmash kerak. Tamaki qutisidagi bir enlik “chekish sog‘liq uchun xavfli” deyilgan yozuvga esa kashandalar, deyarli, hech qachon e‘tibor berishmaydi.

Tamaki fabrikalari dastlab 17-asrda Angliya va Gollandiyada, 18-asrning 1-yarmida Rossiyada qurilgan va dunyoda birinchi bo‘lib papiros Rossiyada ishlab chikarilgan. O‘zbekiston hududida birinchi tamaki fabrikasi rus sanoatchisi I.I.Pervushin tomonidan 1877-yilda Toshkentda qurilgan. Keyinchalik xom ashyo taqchilligi sababli yopilgan. 1925-yilda Toshkentda tamaki fabrikasi qurilib, 1926-yilda 203 mln. dona papiros ishlab chiqardi, 1949-yilda korxonada sigaret ishlab chiqarish asbobuskunalari bilan jihozlanadi, 1966-yildan filtrlil sigaretlar, 1974-yildan yuqori sifatli sigaretlar ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. 1975-yilda O‘zbekiston Respublikasida 111 mln. dona papiros, 4013 mln. dona sigaret, shu jumladan 738 mln. dona filtrlil sigaret ishlab chiqarildi. Respublikada tamaki yetishtirish uchun iqlim, ob-havo sharoitlarining qulayligi, malakali ishchi kuchi, Markaziy Osiyo mamlakatlari bozoriga kirish imkoniyatlari borligi tufayli 1994-yilda Buyuk Britaniyaning “British ameriken tobakko” kompaniyasi bilan hamkorlikda “O‘zBAT aksiyadorlik jamiyati” tamaki mahsulotlari ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonada tashkil etildi. 1994-yildan boshlab Toshkent sigaret fabrikasi, Urgut fermentatsiya zavodi (Samarqand viloyati) rekonstruksiya qilindi, 1997-yilda yillik quvvati 12 mlrd. dona sigaret bo‘lgan yangi Samarqand sigaret fabrikasi qurib bitkazildi. Kompaniya O‘zbekiston Tamaki sanoatiga 1994—2003-yillarda jami 285,1 mln.

dollar bevosita investitsiya kiritdi. 2002-yilda Moskvada o‘tkazilgan jahon tamaki ko‘rgazmasida “Xon LightS” va “Xon Ultra Lights” sigaretlari oltin, “Karvon” sigareti kumush medallar bilan mukofotlandi. Respublika Tamaki sanoatida 6,5 mlrd. dona sigaret ishlab chiqarildi, 9 ming tonnaga yaqin tamaki bargi eksport qilindi (2003). Respublika Tamaki sanoati mahsulotlari (tamaki bargi, sigaret) Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot, xususan, noqonuniy tamaki mahsulotlari aylanmasiga qarshi kurashish doimgidan-da dolzarb bo‘lib bormoqda. Sababi so‘ngi 2 yil ichida respublikada tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi hajmi 4 foizdan 15 foizga ortgan. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan berilgan ma‘lumotiga ko‘ra joriy yil davomida bir qator noqonuniy tamaki mahsulotlari savdosiga chek qo‘yilgan. Bunda “O‘zbekistonda 2022-yilning o‘tgan davrida 19 ta holatda 67 million 400 ming so‘mlik noqonuniy tamaki mahsulotlari savdodan olib qo‘yildi. Bunga ayrim “tadbirkorlar” tamakini noqonuniy savdoga qo‘ygani sabab bo‘lgan. Hukumatning 2021-yil 7-yanvardagi qaroriga asosan, sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Unga muvofiq, sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish tartibi belgilangan”, – dedi mutaxassis. “O‘zbekistonda tamaki mahsulotlari sotish uchun faqat yuridik shaxslarga ruxsat berilgan. Respublikada tamaki ishlab chiqaruvchi korxonalar bor. Qonunchilikka ko‘ra, ulardan mahsulot sotib olish pul ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshirilishi lozim. Yuridik shaxslar onlayn nazorat kassa bilan ta‘minlangan bo‘lishi shart”, – dedi. Davlat soliq qo‘mitasi departament bosh inspektori Otabek Tangriberganovning ma‘lum qilishicha, sohada noqonuniy tamaki mahsulotlari savdosiga chek qo‘yish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri markirovkalash tizimidir. “Noqonuniy olib kirilgan tamaki mahsulotlari aksiz markasiz bo‘ladi.

Rossiya shunday joylardan biri bo‘lib, u erda 46 foizi kamida vaqti-vaqti bilan sigaret chekishni tan olgan. G‘arbiy Evropada ispan respondentlari xuddi shunday yuqori foydalanish darajasini ko‘rsatdilar (42 foiz), Germaniya ham 40 foiz bilan ortda qoldi. Lungs assotsiatsiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, kuniga o‘rtacha chekuvchi kuniga 15 ta sigaret chekadi.

Avstraliyada sigaretalar juda qimmat bo‘lganligi sababli, natija juda ta‘sirli bo‘lib, 40 dona sigaretaning narxi 56,95 Avstraliya dollarini tashkil etdi. Ha, u erda chekish nafaqat sog‘liqqa, balki hamyonga ham jiddiy zarar etkazadi. Biz chekga qaraymiz va u erda ko‘ramiz: 972 g banan, 2 litr sut, 1 kg margarin, 1 kg qulupnay yogurt, 1,2 kg mol go‘shiti kolbasa (2 ta 600 g paket), 500 g maydalangan mol go‘shiti, 500 g pishloq, 1 kg muzlatilgan loviya, 1 kg muzlatilgan no‘xat, 1 kg sabzi, 2 kg

kartoshka, 1 kg olma, 500 g makaron sousi, 500 g spagetti, 1,12 kg bug'doy pechene, 380 g gazak, 1,3 kg oq non (2 ta 650 g paket). Umumiy qiymati 56,85 Avstraliya dollarini tashkil etdi. Ya'ni, sigaretalar narxidan ham bir oz kamroq. Shunday qilib, tasavvur qiling-Avstraliyada kuniga bitta dudlangan paket bir haftalik menyu bilan bir xil.

Talabalar o'rtasida o'kazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ko'pchilik tanishlarimiz, do'stlarimiz bilan chekish tog'risida bahslashganimizda, ular siqilganidan chekishini aytishadi. Sizningcha bu tog'rimi? Ha-18%, Yo'q-22%, O'zini oqlashga urinish-53%, Burgaga achchiq qilib ko'rpani yoqish-7%.

Sizningcha ko'p tamaki iste'mol qiladigan yoshlar, tamakining zararlari haqida bilishadimi? Ha-29%, Yo'q-3%, Bilib turib chekishadi-65%, Oqibatini bilishmaydi-3%. Sizningcha ko'p tamaki iste'mol qiladigan yosh qatlami necha yoshdagilarni o'z ichiga oladi? 18-25---49%, 25-36---43%, 45+---8%. Sizningcha bir oy davomida tamaki iste'mol qiladigan shaxs, tamakiga sarflaydigan mablag'ini boshqa sohalarga jumladan IT sohasi, Xalqaro til kurslariga sarflasa maqsadga muvofiq bo'ladimi? Ha-33%, Yo'q-12%, Albatta foydali bo'ladi...-55%.

O'zbekistondagi jami erkaklarning 23 foizi, ayollarning esa 1 foizi chekuvchilardan iborat, mamlakatda har yili 30 mingga yaqin kishi aynan chekish bilan bog'liq kasalliklar tufayli olamdan o'tadi. BMT ma'lumotiga ko'ra, tamakidan yiliga 5,4 million, ya'ni har 6 soniyada 1 kishi hayotdan ko'z yumar ekan. O'zbekistonda tamaki chekuvchilar soni 2,5 millionga yaqin.

Endi manashu o'spirin yigit sigaretga sarflaydigan moliyaviy mablag'ini boshqa sohaga yo'naltirganda qanday bo'lardi?

1 quti sigaret narxi o'rtacha – 20 000 so'm

1 kunda o'rtacha- 20 000 so'm

1 oyda o'rtacha- 600 000 so'm tashkil etadi.

Jumladan Data Science sohasini Mohirdev platformasida 6 oylik kurs narxi 2 500 000 so'mni tashkil etadi. Bu o'rtacha oyiga 416 000 so'mni tashkil qiladi. Data Science mutaxassisi o'rtacha oyligiga keladigan bo'lsak, 700-800\$ tashkil etadi. Bundan tashqari IT sohasida o'qib Dasturchi yoki xorijiy tillarni o'zlashtirib, kamida boshlang'ich 500-600\$ topishi mumkin.

Agar sigaret uchun sarflaydigan mablag'ni yuqoridagi sohalarga yo'naltirganda, bu inson o'z kasbini yetuk mutaxassisi bo'lib yetishardi. Qolaversa Davlat uchun ham foydadan holi bo'lmaydi. Misol uchun Ishsizlik darajasi ma'lum miqdorda kamayadi. Hayotda o'sha inson o'z o'rnini topoladi.

REFERENCES

1. Астапенко, А. Табак – инсульт / А. Астапенко, Т. Антиперович // Здоровье и успех. — 2012. — № 5. — С. 9—10.
2. Богданов, И. Дым отечества, или Краткая история табакокурения / И. Богданов. — Москва : Новое литературное обозрение, 2007. — 280 с.
3. Никотиновая зависимость: (психоактивные зависимости) / [сост. Н. Н. Бойко]. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Родная страна, 2009. — 198, [1] с. ББК 51.1(2)592
4. <https://kun.uz/news/2021/11/12/ozbekiston-aholisining-qancha-foizi-chekuvchilar-ekani-malum-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F11%2F12%2Fozbekiston-aholisining-qancha-foizi-chekuvchilar-ekani-malum-qilindi>
5. <https://archpublichealth.biomedcentral.com/articles/10.1186/s13690-022-00929-9>
6. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Health_effects_of_tobacco
7. <https://nida.nih.gov/publications/research-reports/tobacco-nicotine-e-cigarettes/what-are-physical-health-consequences-tobacco-use>

MUNDARIJA | CONTENTS

42. Khajimuratov, A. A. (2024). ZAMONAVIY TIBBIYOT KADRLARINI TAYYORLASHDA IQTISODIY BILIMLARNING ZARURIYATI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 196-200.
43. Atamuratova, F. S. (2024). SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING AXLOQIY ME'YORLARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 201-204.
44. Mukhamadjanov, S. S. (2024). PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 205-207.
45. Sultanova, A. R. (2024). SOG'LOM TAFAKKUR – SOG'LOM TURMUSH GAROVIDIR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 208-210.
46. Парпиева, Н. Т., & Сафарова, Т. (2024). ВЫВЕДЕНИЕ ПРАКТИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НА КАЧЕСТВЕННО НОВЫЙ УРОВЕНЬ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОГО РЕГИОНА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 211-214.
47. Rakhmonberdiev, I., & Aliyev, B. A. (2024). A SOCIO PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF HUNTINGTON'S THESIS ON ETHNIC MINORITIES AND THE CLASH OF CIVILIZATIONS. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 215-220.
48. Eshpulatova, Z. B. (2024). TIBBIY XIZMATLARNI KO'RSATUVCHI IQTISODIY SUBEKTLARDA DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILASHTIRISH ZARURATI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 221-224.
49. G'ulomova, R. (2024). O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 225-229.
50. Xolbekova, M. (2024). O'ZBEKISTONDA XALQ TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY SIFAT BOSQICHLARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 230-232.
51. Mirzohandamov, A. R. (2024). "O'ZBEKISTONDA 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA INSON KAPITALINI OSHIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 233-238.
52. Muratova, D. (2024). O'ZBEKISTONNING 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 239-240.
53. Парпиева, Н. Т., & Омонов, Ш. О. (2024). ВЛИЯНИЕ ДОСТУПНОСТИ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕСПУБЛИКИ В СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН-2030». *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 241-245.
54. Norboev, T., & Akhmatova, M. (2024). SCIENCE, STRATEGIES AND THEIR PRACTICAL IMPLICATIONS IN THE CONSTRUCTION OF NEW UZBEKISTAN. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 246-250.
55. Abduraxmanov, S. Z., & Alimova, S. G. (2024). TAMAKI MAHSULOTLARINING BIOLOGIK VA SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 251-255.